O'ZBEKISTON TURISTIK XIZMATLAR BOZORIDA BANDLIK TRANSFORMATSIYASINI VA UNI TARTIBGA SOLISH HOLATINI TAHLIL QILISH	804
To'xtayeva Xurshida Farxodovna	
INVESTITSIYA LOYIHALARIGA TA'SIR QILUVCHI INVESTITSIYA RISKLARINI BAHOLASH	811
Zohidova Ruxsora Komiljon qizi	
ТИПЫ НАЦИОНАЛЬНЫХ ФИНАНСОВЫХ РАЗВЕДОК: ОСНОВНЫЕ РАЗЛИЧИЯ, ФОРМЫ И МЕТОДЫ ОСУЩЕСТВЛЕНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	817
Эсанов Шохрух Отабекович	
FACE RECOGNITION PROGRAM IN PYTHON	823
Khurramova Maftunakhon Zhurabekovna, Khurramov Azizjon Bakhodir ugli	
FORMATION OF ACCOUNTING POLICY FOR INTANGIBLE ASSETS	827
Farxod T. Abduvaxidov, Ramazon A. Abdurakhmanov	
O'ZBEKISTON EKSPORT TARKIBINI YUQORI QO'SHIMCHA QIYMATLI MAHSULOTLARGA O'TKAZISH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	834
Raximov Eshmurod Normuradovich	
EKSPORT FAOLIYATIDA ERKIN IQTISODIY ZONALARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	838
Berdivaliyeva Madina Komiljon qizi	
TURIZM KLASSTERLARIDA TIBBIY XIZMATLAR INTEGRATSIYASI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	841
Yazdanova Shohista Tuyg'un qizi Farxodova Shohnoza Umidbek qizi	
O'ZBEKISTON HAVO TRANSPORTI TIZIMINING JAHON IQTISODIYOTIDAGI O'RNI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	850
Azimova Moxinur Nozimovna	
ОЦЕНКА СОВРЕМЕННОГО СОСТОЯНИЯ КАЧЕСТВА ОБСЛУЖИВАНИЯ В МАЛЫХ ГОСТИНИЦАХ ТАШКЕНТСКОЙ ОБЛАСТИ	856
Гаппарова Майрамхон Зафар кизи	

MOLIYA TIZIMI BARQARORLIGI VA BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING AHAMIYATI

Aktamov Akbarjon Aslan o'g'li

TDIU mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada moliya tizimi barqarorligini ta'minlash va budjet tushumlarini oshirishda tashqi iqtisodiy faoliyatning ahamiyati tahlil qilingan. Jahon bozorida integratsiya jarayonlari, tashqi savdo munosabatlari va ularning davlat moliyaviy barqarorligiga ta'siri yoritilgan. Xususan, eksport va import operatsiyalari orqali valyuta tushumlarini ko'paytirish, tashqi iqtisodiy faoliyatdan olinadigan bojxona to'lovlari va soliq tushumlari davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda muhim omil sifatida ko'rib chiqilgan. Shu bilan birga, tashqi iqtisodiy faoliyatning xususiy sektor rivojlanishiga ijobiy ta'siri, ya'ni yangi ish o'rinlari yaratilishi, investitsiyaviy muhitni yaxshilash va tadbirkorlik subyektlari faolligini rag'batlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashda tashqi iqtisodiy siyosatni samarali yo'lga qo'yish bo'yicha xulosa va amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: mamlakat iqtisodiyoti, tashqi iqtisodiy faoliyat, bojxona to'lovlari, boj-tarif siyosati, soliqlar, daromad, samaradorlik.

Abstract: This article analyzes the significance of foreign economic activity in ensuring the stability of the financial system and increasing budget revenues. The processes of integration in the global market, foreign trade relations, and their impact on the financial stability of the state are highlighted. In particular, the increase in foreign currency inflows through export-import operations, as well as customs duties and tax revenues from foreign economic activity, are considered as important factors in forming the revenue side of the state budget. In addition, special attention is paid to the positive impact of foreign economic activity on the development of the private sector, namely the creation of new jobs, the improvement of the investment climate, and the stimulation of entrepreneurial activity. The article presents conclusions and practical recommendations on the effective implementation of foreign economic policy to ensure the stability of the national economy.

Key words: country's economy, foreign economic activity, customs duties, tariff policy, taxes, income, efficiency.

Аннотация: В данной статье проанализировано значение внешнеэкономической деятельности в обеспечении стабильности финансовой системы и увеличении доходов бюджета. Освещены процессы интеграции на мировом рынке, внешнеторговые отношения и их влияние на финансовую устойчивость государства. В частности, рассмотрено увеличение валютных поступлений за счёт экспортно-импортных операций, а также таможенные пошлины и налоговые поступления от внешнеэкономической деятельности как важный фактор формирования доходной части государственного бюджета. Кроме того, особое внимание уделено положительному влиянию внешнеэкономической деятельности на развитие частного сектора, а именно созданию новых рабочих мест, улучшению инвестиционного климата и стимулированию активности предпринимательских субъектов. В статье представлены выводы и практические рекомендации по эффективной реализации внешнеэкономической политики для обеспечения устойчивости национальной экономики.

Ключевые слова: экономика страны, внешнеэкономическая деятельность, таможенные сборы, тарифная политика, налоги, доходы, эффективность.

KIRISH

Tashqi iqtisodiy faoliyat har qanday davlat iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Uning muhim vositalaridan biri sifatida bojxona tariflari ko'riladi. Bojxona tariflari orqali davlat tashqi savdo jarayonlarini tartibga soladi, milliy bozorni jahon bozori bilan uyg'unlashtiradi hamda moliya tizimining barqarorligini ta'minlashga hissa qo'shadi.

Bojxona tariflari mohiyatan davlatning tashqi iqtisodiy siyosatini amalga oshirish usulidir. Ular chegara orqali olib kiriladigan yoki olib chiqiladigan tovarlarga nisbatan belgilangan bojxona bojlari va yig'implari orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon, avvalo, davlat budjeti daromadlarining muhim manbasi bo'lib xizmat qiladi. Bojxona to'lovlari, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga

ega. Chunki ushbu to‘lovlar budget tushumlarida sezilarli ulushni tashkil qiladi va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarini moliyalashtirish imkonini yaratadi.

Shu bilan birga, bojxona tariflari milliy ishlab chiqaruvchilarni tashqi raqobatdan himoya qiladi. Chet eldan arzon mahsulotlar haddan tashqari ko‘p kirib kelishining oldi olinadi, ichki ishlab chiqarish rivojlanishga qaratilgan ustuvor sharoit yaratiladi. Bu esa yangi ish o‘rinlari yaratish, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, soliq tushumlarini ko‘paytirish kabi omillar orqali moliya tizimining barqarorligiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Bojxona tariflarining yana bir muhim jihati fiskal vazifadir. Ya‘ni ular davlat budgeti daromadlarini ko‘paytirishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Tarixan bojxona to‘lovlari ko‘pgina mamlakatlarda budgetning asosiy manbai bo‘lgan. Hozirgi zamonda iqtisodiyoti yuqori rivojlangan davlatlarda bu vazifa ikkinchi darajaga o‘tgan bo‘lsa-da, ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlar uchun u hana muhim ahamiyatga ega. Shu orqali davlat moliya tizimi barqarorligi ta‘minlanadi va iqtisodiy xavfsizlik mustahkamlanadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va uning asosiy tarkibiy qismi bo‘lgan bojxona tariflari moliya tizimining barqarorligini ta‘minlash va budget tushumlarini oshirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Ular orqali davlat tashqi savdoni nazorat qiladi, milliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qiladi va budget uchun barqaror moliyaviy manbani shakllantiradi. Shu bois, tashqi iqtisodiy siyosatni samarali yo‘lga qo‘yish nafaqat davlat budgeti barqarorligi, balki milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli taraqqiyoti uchun ham asosiy omil hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Yuridik (rasmiy-huquqiy) yondashuvda xufiyona iqtisodiyot qonunga zid faoliyat sifatida izohlanadi. Bu yondashuvda uning asosiy xususiyatlari rasmiy yoki davlat ro‘yxatidan o‘tmaganligi, davlat nazoratidan chetda bo‘lishi hamda noqonuniy faoliyat shaklida namoyon bo‘lishi bilan belgilanadi.

Masalan, tadqiqotchilar D. Makarov va V. Esipov xufiyona iqtisodiy faoliyatni nazorat qilishning murakkabligi va mavjud ochiq usullar orqali uni to‘liq aniqlashning qiyinligini ta‘kidlaydilar. V. Ispravnikov va V. Kulikov esa xufiyona iqtisodiyotning mezon sifatida faoliyatning rasmiy ro‘yxatdan o‘tmaganligini va uning qonunchilikka mos kelmasligini ko‘rsatganlar.

B. Dallago esa bu jarayonlarni baholashda “nomuntazam iqtisodiyot” tushunchasidan foydalanib, muntazam qoidalar va qonunlarga bo‘ysunmagan yoki davlat boshqaruvi va nazoratidan chetda qolgan iqtisodiy faoliyat turlarini ifodalaydi.

Iqtisodiy yondashuvda xufiyona iqtisodiyot ko‘proq soliqlarni to‘lashdan yashirilgan iqtisodiy faoliyat sifatida talqin qilinadi. Bu esa uni iqtisodiy kategoriyalar orqali tavsiflash imkonini beradi.

Hisob-statistik yondashuv Milliy hisoblar tizimi (MHT) metodologiyasiga asoslanib, xufiyona iqtisodiy faoliyatning rasmiy statistikada aks etmasligini asosiy mezon sifatida belgilaydi. Ushbu metodologiyaga ko‘ra, xufiyona iqtisodiyot ikki turga bo‘linadi:

a) YAIM hajmida inobatga olinadigan mahsulдор faoliyat turlari; b) YAIM hajmini hisoblashda aks ettirilmaydigan, biroq statistik hisob-kitoblarni aniqlashtirish maqsadida qayd etiladigan faoliyatlar.

Mazkur yondashuvning ustun jihati shundaki, u xalqaro miqyosda qabul qilingan metodologiya asosida yashirin iqtisodiy faoliyatni miqdoriy baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, bu yondashuv doirasida iqtisodiy tizimga bevosita ta‘sir ko‘rsatmaydigan ayrim faoliyat turlarining hajmi va tarkibini to‘liq aniqlash imkoniyati cheklangan bo‘lib qolmoqda. Bundan tashqari, statistik ma‘lumotlarning to‘liqligi va ishonchiligi masalalari ham muhim omil sifatida qayd etiladi.

Kompleks yondashuv esa yuqoridagi qarashlarni birgalikda o‘rganishni nazarda tutadi. Masalan, A. Shoxin o‘z tadqiqotlarida xufiyona iqtisodiyotning belgilari sifatida hisob-kitob yuritilmasligi, reglamentatsiyaning yo‘qligi hamda faoliyatning qonunchilik doirasidan chetda qolishini qayd etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada tashqi iqtisodiy siyosatni takomillashtirishning mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi iqtisodiy ahamiyati regressiya va korrelyatsiya modellaridan foydalanib tahlil qilindi hamda kelgusida amaliy qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bojxona tariflari davlat iqtisodiy siyosatining muhim vositalaridan biri bo‘lib, ular milliy xo‘jalikdagi o‘zgarishlar va xalqaro savdo tendensiyalari bilan uyg‘un ravishda rivojlanib boradi. Davlatlar tomonidan tariflarni qayta ko‘rib chiqish jarayonlari iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash va budget daromadlarini ko‘paytirishga yo‘naltirilgan.

Avvalo, sanoat mahsulotlariga qo‘yilgan bojlarning qisqarishi yoki ayrim hollarda umuman bekor qilinishi tashqi savdo aylanmasiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bu esa eksport imkoniyatlarini kengaytiradi, valyuta tushumlarini oshiradi va davlat moliya tizimini barqarorlashtiradi. Shuningdek, erkin savdo hududlari va mintaqaviy tarif

ittifoqlari tashqi iqtisodiy munosabatlarni kengaytirib, bojxona yig'implari va soliq tushumlari orqali budget daromadlarini oshirish imkonini yaratadi.

Bundan tashqari, bojxona tariflari va ularga oid qoidalarni unifikatsiya qilish jarayoni xalqaro savdoning barqaror mexanizmlarini shakllantiradi. Masalan, GATT/WTO doirasidagi ko'p tomonlama muzokaralar natijasida rivojlangan mamlakatlarda tariflarning qisqarishi tashqi iqtisodiy munosabatlarni yanada faollashtirgan.

Rivojlangan mamlakatlarda qo'llaniladigan ko'p ustunli tarif tizimi esa turli tovarlarga ularning kelib chiqish mamlakatiga qarab differensial boj stavkalarini belgilash imkonini beradi. Bu tizim tariflarni nafaqat savdoni tartibga solish vositasi sifatida, balki budget daromadlarini diversifikatsiya qilish orqali moliya tizimining barqarorligini ta'minlash omili sifatida ham qo'llash imkonini beradi.

Shu tariqa, bojxona tariflarining bosqichma-bosqich takomillashuvi va xalqaro me'yorlarga moslashuvi davlat moliyaviy barqarorligini ta'minlash, budget tushumlarini oshirish va milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli rivojlanishi uchun strategik ahamiyat kasb etadi.

1-jadval. Tashqi iqtisodiy faoliyatning moliya tizimi va budgetga ta'siri

№	Yo'nalishlar	Ta'sir yo'nalishi	Moliya tizimiga ta'siri
1	Eksport operatsiyalari	Valyuta tushumlari ko'payadi	Budgetda valyuta zaxiralari ortadi, moliyaviy barqarorlik ta'minlanadi
2	Import operatsiyalari	Soliq va bojxona yig'implari	Davlat budgetiga qo'shimcha tushumlar ta'minlanadi
3	Bojxona tariflari	Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qiladi	Ichki bozor barqarorligi va soliq tushumlari ortadi
4	Tashqi investitsiyalar	Kapital kirishi	Investitsiya muhiti yaxshilanadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi
5	Savdo ittifoqlari va integratsiya	Erkin savdo hududlari	Eksport-import hajmi ortadi, budget daromadlari kengayadi
6	Fiskal vazifa	Davlat daromadlarini ko'paytiradi	Budget barqarorligi va ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirish imkoniyati yaratiladi
7	Ishbilarmonlik faoliyati	Tadbirkorlik rivojlanadi	Soliq bazasi kengayadi, iqtisodiy o'sish sur'ati ta'minlanadi

Tashqi iqtisodiy faoliyat mamlakat moliya tizimi barqarorligini ta'minlashda va budget tushumlarini oshirishda strategik omil hisoblanadi. Eksport va import orqali valyuta tushumlari hamda bojxona yig'implari ortadi, bojxona tariflari mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qiladi, investitsiya va integratsiya esa ishbarmonlik muhitini yaxshilaydi hamda yangi ish o'rinlarini yaratadi.

Bojxona tariflari tashqi iqtisodiy siyosatning asosiy vositasi bo'lib, ularning vazifalari milliy iqtisodiyot rivojlanishi va davlat moliya tizimi barqarorligi bilan uzviy bog'liqdir.

Ular import tovarlar narxini oshirish orqali ichki bozorda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni chet el raqobatidan himoya qiladi. Bu, ayniqsa, mehnat talab qiladigan tarmoqlar va istiqbolli korxonalar faoliyatini rag'batlantirishda muhim ahamiyatga ega. Agar chet el mahsulotlari ortiqcha miqdorda kirib kelsa, milliy ishlab chiqaruvchilarning bozor ulushi qisqaradi va ularning rivojlanishiga to'siq bo'ladi. Shu bois import hajmlarini oqilona tartibga solish va ichki bozorda narxlar barqarorligini ta'minlash davlat moliyaviy barqarorligi uchun muhim hisoblanadi.

Shu bilan birga, bojxona tariflari davlat budgeti uchun to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy manba vazifasini ham bajaradi. XIX asrda AQShda import bojar budget tushumlarining 50 foizini tashkil etgan bo'lsa, hozirgi vaqtda bu ko'rsatkich 1,5 foizdan oshmaydi. Yevropa Ittifoqi, Yaponiya, Xitoy va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda ham iqtisodiy o'sish bilan birga bojxona to'lovlari budget daromadlaridagi ulushini sezilarli ravishda yo'qotgan. Biroq, rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ko'rsatkich hali ham yuqori bo'lib, ko'p hollarda davlat budgeti daromadlarining 8–15 foizini tashkil etadi. Demak, bojxona tariflari ayniqsa iqtisodiy taraqqiyot bosqichidagi davlatlarda moliya tizimi barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Biroq bojxona tariflarining kamchiliklari ham mavjud. Masalan, yuqori stavkalar aholi to'lov qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, tovarlarni boshqa nom bilan rasmiylashtirish orqali bojxona qoidalarini aylanib o'tish holatlari ham yuzaga kelishi ehtimoldan xoli emas. Bunday sharoitda yuqori tariflar ayrim hollarda budget tushumlarini ko'paytirish o'rniga, aksincha, ularning qisqarishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, bojxona stavkalarini optimal darajada belgilash va tashqi savdo uchun qulay muhit yaratish moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda eng to'g'ri yo'l hisoblanadi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bojxona tariflarini nisbiy ravishda pasaytirish tashqi savdo aylanmasini kengaytiradi, eksport va import hajmlarini oshiradi va budget tushumlarining ko'payishiga xizmat qiladi. Bu esa

davlat moliya tizimi barqarorligini mustahkamlash, iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini ta‘minlash va ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirishga olib keladi.

Bojxona tariflari tashqi iqtisodiy faoliyatda ikki xil vazifani bajaradi:

Milliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish va ichki bozor barqarorligini ta‘minlash.

Davlat budjeti uchun muhim moliyaviy manba sifatida xizmat qilish.

Ularning samarali tarzda qo‘llanilishi davlat moliya tizimi barqarorligini ta‘minlabgina qolmay, budget tushumlarini ham sezilarli darajada oshirish imkonini yaratadi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida tashqi iqtisodiy faoliyat va xususan bojxona tariflarining ahamiyati juda katta.

Ular nafaqat tashqi savdoni tartibga solish vositasi, balki davlat moliya tizimi barqarorligi va budget tushumlarini ko‘paytirishning muhim manbaidir. Avvalo, bojxona tariflari fiskal vazifani bajaradi. Import bojar davlat budjetiga ishonchli tushum manbai hisoblanib, ayrim yillarda ular budget daromadlarining sezilarli qismini tashkil etgan. Ayniqsa, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda bojxona to‘lovlarining davlat budjetidagi ulushi yil sayin ortib borayotganini kuzatish mumkin. Bu holat davlat moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda tashqi iqtisodiy faoliyatning beqiyos ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, bojxona tariflari mamlakatning savdo va to‘lov balansini muvozanatlashda muhim vosita hisoblanadi. Jahon savdo tashkiloti (GATT/TO) qoidalariga ko‘ra, davlatlar tashqi moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash maqsadida import hajmlariga cheklov qo‘yish huquqiga ega. Bu mexanizm davlat moliya tizimini himoya qilish, valyuta zahiralarini saqlash va to‘lov balansi barqarorligini ta‘minlashda qo‘l keladi.

Bundan tashqari, xalqaro hamkorlik doirasida tuziladigan shartnomalar asosida savdo-sotiqda boj stavkalarini pasaytirish imkoniyati mavjud. Bu, bir tomondan, savdoni erkinlashtirsa, ikkinchi tomondan, hamkor davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, bojxona tariflari tashqi siyosat vositasi sifatida ham xizmat qiladi: agar boshqa mamlakatlar kamsituvchi choralar qo‘llasa, O‘zbekiston ham ularga nisbatan tarif-preferensiyalardan mahrum qilish kabi choralarni qo‘llashi mumkin. Demak, bojxona tariflari nafaqat iqtisodiy, balki savdo-siyosiy vazifani ham bajaradi.

Mamlakat ishlab chiqaruvchilari va eksportchilari uchun bojxona tariflari raqobatbardoshlikni oshirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Chet eldan olib kiriladigan xomashyo, uskuna va texnologiyalarga imtiyozli yoki bojssiz rejim joriy etilishi mahalliy ishlab chiqaruvchilarni rag‘batlantiradi, eksportbop mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratilishi, investitsiya muhitining yaxshilanishi va davlat budjetiga soliq tushumlarining ko‘payishiga olib keladi.

Shuningdek, bojxona tariflari chegara orqali tovar harakatini nazorat qilishda muhim mexanizm hisoblanadi. Hatto stavkalar unchalik yuqori bo‘lmasa ham, ular orqali bojxona xizmati mahsulotlarni aniq tekshirish, rasmiylashtirish va to‘lovlarni hisoblash jarayonini ta‘minlaydi. Bu esa shaffoflikka erishish, noqonuniy savdoni kamaytirish va davlat budjetiga qo‘shimcha tushumlarni kafolatlash imkonini beradi.

O‘zbekiston moliya tizimini barqarorlashtirish va davlat budjeti tushumlarini oshirishda qator vazifalarni bajaradi:

Fiskal vazifa — ishonchli budget manbai.

Savdo va to‘lov balansini muvozanatlash.

Milliy ishlab chiqaruvchilar va eksportchilarni rag‘batlantirish.

Xalqaro hamkorlikda iqtisodiy va siyosiy ta‘sir vositasi.

Davlat nazorati va shaffoflikni ta‘minlash mexanizmi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Davlatlar uchun bojxona tariflari tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Ular orqali import va eksport operatsiyalari nazorat qilinadi, davlat budjetiga barqaror moliyaviy tushumlar ta‘minlanadi va iqtisodiy barqarorlik mustahkamlanadi. Shu jihatdan, O‘zbekiston va boshqa davlatlarda bojxona-tarif siyosati moliya tizimining barqarorligini ta‘minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Bojxona tariflari qat‘iy belgilangan me‘yorlar asosida qo‘llaniladi. Ular tovarlarning mamlakatga olib kirilishi yoki tashqariga chiqarilishi jarayonida undiriladigan bojar orqali amalga oshiriladi. Mazkur me‘yorlarning yagona bo‘lishi ularni turli shaxslar, shartnomalar yoki boshqa holatlarga qarab o‘zgartirish imkoniyatini istisno etadi. Samimiy shakllantirilgan tarif siyosati davlat iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir ko‘rsatib, iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini jadallashtiradi va budget tushumlarini ko‘paytiradi.

Bundan tashqari, tarif siyosatini amalga oshirishda qo‘shimcha vositalardan ham foydalaniladi. Ular jumlasiga:

muayyan davlatlarga nisbatan beriladigan preferensiyalar yoki yilning ma‘lum davrida joriy etiladigan maxsus tariflar (masalan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari uchun);

tovar qiymatini baholash usullari, chunki aynan ular boj miqdorini belgilaydi;

tovar kelib chiqishini aniqlovchi qoidalar, bu esa tarif imtiyozlaridan foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Shu asosda bojxona tariflari siyosatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Chet eldan olib kiriladigan tovarlar tarkibini oqilona boshqarish va milliy iqtisodiyot ehtiyojlariga mos ravishda tartibga solish.

Import va eksport o'rtasidagi muvozanatni saqlash hamda valyuta daromadlari va xarajatlarning barqarorligini ta'minlash.

Ishlab chiqarish va iste'mol tuzilmasida zamonaviy o'zgarishlar kiritish, innovatsion jarayonlarni rag'batlantirish.

Milliy ishlab chiqaruvchilarni chet el raqobatining salbiy ta'siridan himoya qilish.

Jahon iqtisodiyotiga samarali integratsiyani ta'minlash va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni kuchaytirish.

Bojxona tariflari siyosati tashqi iqtisodiy faoliyatning ajralmas qismi sifatida moliya tizimi barqarorligini ta'minlaydi va davlat budjeti daromadlarini oshirishga xizmat qiladi. O'zbekiston sharoitida ham samarali tarif siyosati orqali iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, tashqi savdodan olinadigan tushumlarni ko'paytirish hamda milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash imkoniyati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Сертификатланган бухгалтерлар ассоциацияси «АССА» (Association of Chartered Certified Accountants) ҳисоботи маълумотлари асосида шакллантирилди. "Emerging from the shadows. The shadow economy to 2025" // <https://www.accaglobal.com/gb/en.html>
2. Макаров Д. Экономические и правовые аспекты теневой экономики в России // Вопросы экономики, 1998, №3. – С.21-24.
3. Есипов В.М. Теневая экономика. – М.: 1997. – С.42.
4. Исправников В.О., Куликов В.В. Теневая экономика: иной путь и третья сила // Российский экономический журнал, 1997, №3. – С.13-14.
5. Dallago B. (1994) The irregular economy in transition: features, measurement and scope. In: Output Decline in Eastern Europe: Unavoidable, External influence or Homemade? Ed. by R.Z. Holzman et al. IIASA, Luxemburg.
6. Шохин А.Н. Социальные проблемы перестройки. – М.: Экономика, 1989.
7. Ўзбекистон Республикаси Давлат божхона қўмитаси маълумотлари.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 2 октябрдаги ПҚ-4470-сон қарори // Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси – www.lex.uz.
9. <https://qomus.info/uz>.



**TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

IV GLOBAL VA MILLIY IQTISODIYOT TRENDLARI: “O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI FORUMI

YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT

Ilmiy elektron jurnal

(MAXSUS SON)

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS

23-24

OCTOBER
2030

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING
SUSTAINABLE ECONOMIC
GROWTH IN THE CONTEXT OF
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

23-24
OCTOBER
2025

3RD CONFERENCE:
MACHINE LEARNING AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE:
A NEW APPROACH TO ECONOMETRIC ANALYSIS

CONFERENCE "GLOBAL
AND NATIONAL ECONOMIC
TRENDS"

UZBEKISTAN
STRATEGY

23-24 OCTOBER

- ARTIFICIAL INTELLIGENCE
AND DIGITAL TECHNOLOGIES
- ECONOMETRICS AND
BUSINESS ANALYTICS
- DATA SCIENCE (DATABASES)
- DIGITAL GOVERNMENT
- DIGITAL TRANSFORMATION
- ECONOMIC STATISTICS
- QUANTITATIVE MEASUREMENT
OF THE ECONOMY

2nd CONFERENCE:
BANKING AND
FINANCIAL SYSTEM AND
DIRECTIONS FOR DEVELOPING
THE PRIVATE SECTOR

23-24 2025
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda
mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro
iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

СТРАТЕГИЯ
«УЗБЕКИСТАН – 2030»

23-24 2025
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda
mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro
iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

strategy2025.tsue.uz

YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH
SHAROITIDA BARQAROR IQTISODIY
O'SISHNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI

2030

<https://strategy2025.tsue.uz/>

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS ФОРУМ UZBEKISTAN
STRATEGY



ISSN: 2992-8982

Elektron pochta: sq1141983@gmail.com

Telefon: +998 93 124 57 11

Sayt: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Telegram: https://t.me/taraqqiyot_va_talim_uz

ISBN 978-9910-8110-8-1



9 789910 811081

CONFERENCE "GLOBAL
AND NATIONAL ECONOMIC
TRENDS"

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING
SUSTAINABLE ECONOMIC
GROWTH IN THE CONTEXT OF
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

2030
UZBEKISTAN
STRATEGY

BANK-MOLIYA TIZIMI
VA XUSUSIY SEKTORNI
RIVOJLANTIRISH
YO'NALISHLARI